

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA KOMILLIK VA KOMIL INSON TALQINI**Tog‘ayeva Sevinch Xakim qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

Jumayev Ilhom Hamrayevich

Ilmiy rahbar. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19443107>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq adabiyotining eng nodir yodgorliklaridan biri — Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asarida ilgari surilgan komil inson g‘oyasi, axloq va odob masalalari, davlat va jamiyat boshqaruvidagi adolat, aql, qanoat, donolik kabi tushunchalarning mohiyati tahlil qilinadi. Asarda o‘rta asr turkiy tafakkuriga xos ma‘naviy va falsafiy qarashlar, insonning ichki kamoloti, jamiyatdagi o‘rni hamda burch va mas‘uliyat tuyg‘ulari poetik obrazlar vositasida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qutadg‘u bilig, komillik, komil inson, adolat, aql, qanoat, tasavvuf, axloq, davlat boshqaruvi, Sharq falsafasi, didaktik doston.

“Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni Sharq tafakkuri tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu asar o‘z davrining ma‘naviy, falsafiy va ijtimoiy hayotini keng qamrab olib, inson kamoloti, davlat boshqaruvi, ilm va odobning mohiyatini yoritgan. Dostonning nomi ham mazmunidan darak beradi — “Saodatga eltuvchi bilim” degan ma‘no insonni haqiqiy baxt va fazilatga yetaklovchi bilim, ya‘ni ma‘rifatni anglatadi.”¹

“Qutadg‘u bilig” dostonida o‘sha davr hayotining barcha qirralari, ikir-chikirlari va ziddiyatlari aniq ifodalangan. Yusuf Xos Hojib o‘zining yuksak o‘y-xayollarini ajoyib timsollarda bayon qilgan, hayotdan bir zum uzilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Alloma davr ziddiyatlaridan ko‘z yummaydi va jamiyatdagi barcha tabaqa va toifalarga xos fazilat hamda qusurlarni, ijtimoiy ahvolni chuqur idrok etganligini doston timsollari orqali ko‘rsatadi. Ba‘zida bu tasavvur feodal-saroy qarashlariga tobe bo‘lib talqin qilinishi mumkin, ammo bu Yusuf Xos Hojibning zukkoligi, ijtimoiy aqli va tadbirkorligining natijasidir.

“Qutadg‘u bilig” asari avom xalq uchun emas, birinchidan xoqon va beklar, ya‘ni yurtning hukmdorlariga atab yozilgan. Turkiy sulolalar islom mintaqasida hukmfarmo bo‘layotgan bir davrda ijtimoiy jihatdan bu doston “Shohnoma”dan ko‘ra zarur bo‘lgan. Shu sababli, kitob turkiy tilida yozilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Yusuf Xos Hojib ushbu ijtimoiy zaruratni o‘z vaqtida anglab yetgan va unga yuksak javob topgan. Uning asarini turkiy hukmdorlar qanday o‘qiganligi va o‘zlashtirgani boshqa masala bo‘lsa-da, tarixiy manbalar Abu Ali Hasan Xorunxon uni yaxshi qabul qilgani va shoirni munosib taqdirlaganini qayd etadi.

Shuningdek, Kuntug‘di va Oyto‘ldi timsollari dostonning hayotiy haqiqatlarga mosligini ta‘kidlaydi.

“Qutadg‘u bilig” asari Sharqda pandnoma turkumidagi an‘anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilgan holda yozilgan. Asar dastlabki o‘n bir faslni o‘z ichiga oladi, ularda debocha, na‘t va Qoraxonniy madhi, ta‘lim maqsadi, yetti kavokib va o‘n ikki burj, tilning ahamiyati, muallifning uzri, ezgulik, bilim olishning ahamiyati, kitobga nom berilishi va keksalikdan afsuslanish kabi mavzular bayon qilingan. Bu jihatlar dostonning nafaqat adabiy, balki ma‘naviy va ijtimoiy ahamiyatini ham oshiradi.

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig: (“Saodatda eltuvchi bilim”) [Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘zboshi muallifi Boqijon To‘xliyev], — Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – Toshkent: 2007.

Shu bilan birga, “Qutadg‘u bilig” dostonida jamiyatning barcha tabaqalari va shaxslaridagi ijobiy fazilatlar va kamchiliklar ko‘rsatilib, o‘quvchiga axloqiy va siyosiy saboqlar berilgan. Bu esa asarning nafaqat hukmdorlar, balki jamiyatning intellektual qatlami uchun ham qadriyat ekanligini bildiradi.

Yusuf Xos Hojib o‘z asarida komil inson masalasini markaziy o‘ringa qo‘yadi. Uningcha, inson kamoloti faqat bilim bilan emas, balki axloq, sabr, halollik va adolat bilan to‘ldirilgandagina haqiqiy komillikka erishadi. Shaxsiy yetuklik, ma‘naviy poklik, jamiyat oldidagi burchni his etish — ularning barchasi komil insonni tavsiflovchi asosiy fazilatlardir.

Asarda to‘rt asosiy qahramon orqali komillikning turli qirralari yoritiladi: Kuntug‘di — adolat, Oyto‘ldi — baxt, O‘gdulmish — aql, O‘zg‘urmish — qanoat timsolidir. Bu obrazlar o‘zaro suhbat va munozaralar orqali hayotiy haqiqatlarni ochib beradi. Muallifning maqsadi — insonni jamiyatda adolatli, dono va halol bo‘lishga undashdir.

Komillik tushunchasi “Qutadg‘u bilig”da faqat shaxsiy fazilat sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyoti uchun zarur ijtimoiy hodisa sifatida ham talqin etiladi. Har bir inson o‘z o‘rnida adolatli bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va barqarorlik qaror topadi. Shu sababli Yusuf Xos Hojib hukmdorlarni ham, xalqni ham adolat, aql va qanoat yo‘lidan yurishga chaqiradi. Muallifning ta‘limotiga ko‘ra, aql — barcha fazilatlarning asosi. Aqlsiz inson na jamiyatda, na davlat boshqaruvida foyda keltira oladi. O‘gdulmish timsolida aql, tafakkur va ilmning hayotdagi o‘rni yoritiladi. Kuntug‘di esa adolatni ifodalaydi — u davlatni boshqarishda xalq manfaati, halollik va to‘g‘rilikni eng muhim qadriyat deb biladi. Oyto‘ldi esa moddiy baxt ramzi bo‘lsa-da, muallif bu baxtni faqat mehnat va ezgulik orqali qo‘lga kiritish mumkinligini ta‘kidlaydi.

O‘zg‘urmish obrazi orqali Yusuf Xos Hojib tasavvufiy fikrlarni ilgari suradi. U dunyo lazzatlaridan voz kechgan, sabr, shukr va qanoat bilan yashaydigan zohid sifatida tasvirlanadi.

Bu orqali muallif insonni nafsni yengishga, ruhiy poklanishga, Allohni tanish va unga yaqin bo‘lishga undaydi.

Asarda komil inson — jamiyatning ustuni, ezgulikning timsoli sifatida gavdalanadi. U faqat o‘z manfaatini emas, balki boshqalarning farovonligini ham o‘ylaydi. Bunday inson ilmga chanqoq, halol mehnatli, so‘zida sobit, o‘z fikriga ega, ammo kibrdan yiroq bo‘ladi. Yusuf Xos Hojib uchun komillik insonning tashqi qiyofasida emas, balki ichki dunyosida — niyat, aql va odob uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

“Qutadg‘u bilig”da tarbiya masalasi ham komillik bilan uzviy bog‘langan. Muallif yosh avlodni ilmga, odobga, halollikka o‘rgatish orqali jamiyatni yuksaltirish mumkin, degan g‘oyani ilgari suradi. Doston o‘z zamonida “hukmdorlar kitobi” bo‘lsa-da, uning ma‘nosi umuminsonga xos qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi.

Yusuf Xos Hojib o‘z asarida shunday deydi:

*“Tilamadim aslo sharaf-shon-u ot,
O‘qisa bas dedim, yaqinmi yo yot.”*

Bu satrlar muallifning o‘z g‘oyasiga sadoqatini, shuhrat emas, xalq uchun ma‘naviy foyda yetkazishni istaganini ifodalaydi. Bugungi kunda ham “Qutadg‘u bilig”da ilgari surilgan g‘oyalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Komillik, halollik, aql va adolatga asoslangan jamiyat barqaror rivojlanadi. Shuning uchun Yusuf Xos Hojibning bu asari faqat adabiy yodgorlik emas, balki umumbashariy axloqiy qo‘llanma sifatida qadrlanadi.

“Qutadg‘u bilig” — komil insonni tarbiyalash, adolatli jamiyat barpo etish yo‘lida yozilgan bebaho asardir. Yusuf Xos Hojib komillikni insonning tashqi ko‘rinishida emas, balki uning ichki dunyosida, niyat va amalda uyg‘unlikda ko‘radi.

Dostonning g'oyalari zamonaviy inson uchun ham ibrat manbai bo'lib, adolat, ilm va axloqni hayotning bosh mezoni sifatida ko'rsatadi. Shu bois bu asar nafaqat o'rta asr turkiy adabiyotining, balki butun insoniyat tafakkurining eng yuksak namunalaridan biridir. Yusuf Xos Hojib nafaqat adib va mutafakkir, balki jamiyat a'zolarini kelishtiruvchi ideolog sifatida ham o'z shuhratini qozondi. Uning hayotiy falsafasi kelishuvchanlik tamoyiliga asoslangan bo'lib, faoliyati davomida u davlat mansabdor shaxslariga va beklar-u amirlarga, o'z navbatida, oddiy xalqqa muhim talab va vazifalarni yetkazishga qodir bo'ldi. Shu orqali u hukumat va raiyatning o'zaro munosabatini yaxshilash, hukmdorlarning hokimiyatini mustahkamlash, zodagonlarning hurmatini oshirish hamda oddiy aholi uchun tinch-totuv, farovon hayot ta'minlanishini ta'kidlagan.

Jabr-zulm, adolatsizlik va ilmsizlik urf bo'lgan davrda Yusuf Xos Hojib insof-u adolat, xayr-u saxovat tamoyillarini ilgari surib, yuqori tabaqa vakillarini va hukmron sinflarni ochiq ogohlantirgan, boyliklarini muhtojlarga tarqatish orqali mamlakat farovonligiga hissa qo'shishga chaqirgan. Bu esa uning jasurligi, vatanparvarligi, insonparvarligi va ijtimoiy adolatga sadoqati kabi ijobiy xislatlarining amaliy ifodasi bo'ldi. Shu tariqa, Yusuf Xos Hojibning asarlari nafaqat adabiy meros, balki jamiyatni birlashtiruvchi, ijtimoiy adolatni targ'ib qiluvchi muhim manba sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig: ("Saodatga eltuvchi bilim") [Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi va so'zboshi muallifi Boqijon To'xliyev], — Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – Toshkent: 2007.
2. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Н.Комилов таржимаси. – Toshkent: Ma'naviyat 1997.
3. Mardlik va jasorat timsoli. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021. B.6 –354.
4. Homidiy H. Ko'hna Sharq darg'alari. Sharq nashriyoti. – Toshkent: 2004.B.–352.